

КО'МАКЧИЛАШИШ ЖАРАЙОНИ ВА УНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ

*Erbutayeva Shalola Utkirovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
utkirovnashalola@mail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzarb muammolardan biri hisoblanmish yordamchi so'z turkumlariga mustaqil so'z turkumlari doirasidan so'z ko'chish jarayoni, bu jarayon bosqichlari va grammatizatsiya hodisasi haqidagi ilmiy mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ko'makchi, ko'chish hodisasi, ko'makchilashish jarayoni, transpozitsiya va konversiya, grammatizatsiya, tublashganlik, ko'makchisimonlik, ko'makchilashganlik va ko'makchilashayotganlik bosqichlari.

YARDIM SÜRECİ VE BİLİMSEL ESASLARI

*Erbutayeva Salola Utkirovna,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğretmeni*

Özet. Bu makalede, modern dilbilim araştırmalarının acil sorunlarından biri olan sözcüklerin bağımsız sözcük gruplarından yardımcı sözcük gruplarına geçiş süreci, bu sürecin aşamaları ve dilbilgiselleşme olgusu hakkında bilimsel değerlendirmeler sunulmaktadır.

Anahtar kelimeler. Yardımcı, geçiş olayı, yardımcı süreç, aktarma ve dönüşüm, gramerleştirme, köklendirme, yardımcı ve yardımcı aşamalar.

ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ПОСЛЕСЛОГОВ (ПРЕДЛОГОВ) И ЕГО НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ

*Эрбутаева Шалола Уткировна,
преподаватель Узбекско-Финского педагогического института*

Аннотация. В данной статье представлены научные размышления о процессе переноса слов из самостоятельных частей речи в служебные части речи, являющиеся одной из актуальных проблем современных лингвистических исследований, этапах этого процесса и явлении грамматизации.

Ключевые слова. Послеслоги (предлоги), явления переноса, процесс становления послелога, транспозиции и конверсии, грамматизация, стадии укорененности послелогообразности, послелог процесс становления послелога.

THE PROCESS OF ASSISTANCE AND ITS SCIENTIFIC BASIS

*Erbutayeva Shalola Utkirovna,
teacher at the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

Abstract. This article presents scientific considerations on the process of word migration from independent word groups to auxiliary word groups, the stages of this process, and the phenomenon of grammaticalization, which is considered one of the urgent problems in modern linguistic research.

Keywords. Auxiliary, migration phenomenon, auxiliaryization process, transposition and conversion, grammaticalization, embeddedness, auxiliary-likeness, auxiliaryization and auxiliaryization stages.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda dolzARB muammolar sifatida yordamchi so'z turkumlari, ularning lingvistik maqomi, grammatik tabiati, boshqa so'z turkumlariga ko'chishi va ayni vaqtida boshqa mustaqil so'z turkumlarining yordamchi so'zlarga ko'chib, grammatik vazifalar uchun xoslanishiga e'tibor qaratilmoqda. Vaholanki, tilshunoslikda yordamchi so'z turkumlari, xususan, ko'makchilarning yuzaga kelishi va nutq ko'rinishlarida qo'llanilishi bilan bog'liq ko'plab masalalar o'z yechimini kutmoqda. Ko'makchilarning mohiyati, qo'llanish imkoniyatlari, ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoit bugungi kunda yuzaga kelgan muammolar emas. Ular ko'p davrlardan beri tilshunoslarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, "ko'makchi nazariyasi uzoq davom etgan o'rganish an'anasisiga qaramay, hali ham takomillashtirishni talab qiladi" [1:21]. Darsliklar va soha lug'atlarida berilgan ta'riflarni umumiylashtirsak, ko'makchi so'zlarning asosiy vazifasi mustaqil ma'noli so'zni boshqa mustaqil ma'noli so'zga bog'lab kelishdan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi. Darhaqiqat, mustaqil so'z turkumiga mansub so'zning yordamchi so'z turkumiga o'tib qolishi vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanib, bosqichma - bosqich amalga oshadigan hodisa sifatida u birdaniga yuzaga kelmaydi. Shu o'rinda tadqiqotchi e'tiborga olish lozim bo'lgan masalalardan biri, avvalo, ko'makchilashish hodisasi qanday yuzaga kelishi, uning paydo bo'lishida ishtirok etuvchi omillar nimalardan iborat ekanligini aniqlashdir. Zero, so'z (leksema) guruhlari - turkumlarining tarixiy-geneologik, tafakkuriy va ierarxiyalı o'zaro aloqasini, tabiiyki, til sathida asosli va barqaror tekshirib bo'ladi. Nutq sathida esa so'zning (leksemaning emas) ma'no jilolari, nutqiy - situativ xususiyatlari amalda bo'ladi, mazkur holda turkumlararo aloqani xolisona tekshirish mushkul. Shu sababli nutq sathida **so'z turkumlarining ko'chishi** hodisasinigina kuzatish samara beradi, zero, so'z turkumlararo ko'chish so'z turkumining nutq sathidagi o'zaro aloqalarining ma'lum shaklidir, bu hodisa aynan nutqiy xususiyat kasb etadi [2:25]. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikda ko'makchi masalasiga turlicha qarashlar mavjud bo'lsa-da, ularning ko'pchiligidagi umumiylilik, ya'ni ko'makchini tavsiflashda ularning kelishiklar orqali amalga oshadigan munosabatlardagi roliga yondashuvdagi uyg'unlik kuzatiladi.

Ko'makchilarning shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu jarayonni o'rganish yordamchi turkum, umuman, ko'makchilar guruhi tarkibiga kirgan birliklar haqida tugal xulosa chiqarishga, ushbu turkumga oid birliklar nega aynan ko'makchi deb nomlanishi haqida yakdil bir fikrga kelinishiga yordamlashadi.

XI asr yozma yodgorliklari tilini morfologik va leksik jihatdan tahlilga tortgan S.Mutallibovning "Ko'makchilar o'z boshicha biror ma'no anglatmay, ot yoki otlashgan so'zlarga birikib, gap bo'laklarining bir-biriga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi yordamchi so'zlardir. Ularning ba'zilari ayrim kelishiklar bilan birgalikda, ba'zilari kelishiksiz yoki ba'zilari biror kelishik funksiyasida qo'llanishlari mumkin" [3:122] - degan fikrlari ko'makchilar va kelishik qo'shimchalari o'rtasidagi aloqa tarixan shakllanganligini ko'rsatadi. Yana bir til tarixchisi J.Hamdamovning fikricha, "Ko'makchilar tarixan mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlardan ajralib chiqqan. Ba'zan mustaqil so'zlar o'z ma'nosida ishlatilishidan tashqari asrlar davomida asta-sekin o'z leksik ma'nosini yo'qotib, ko'makchilashib qolgan. Ular gapning mustaqil bo'lagi bo'lib kela olmaydi. Ular o'zaro fazo, payt, sabab, maqsad, holat, birgalik, o'xshatish kabilarni anglatish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolarni faqat boshqariluvchi so'z ma'nosini bilan birgalikda ifodalaydilar" [4:82]. Ko'rindiki, olimning fikriga asoslanadigan bo'lsak, ba'zan mustaqil so'zlar o'z ma'nosida ishlatilishidan tashqari asrlar davomida asta-sekin o'z leksik ma'nosini yo'qotib, ko'makchi turkumiga o'tib borgan. Demak, olim ko'makchilarning yuzaga kelishi, ko'makchilashish jarayonini bevosita davrga, vaqtga bog'lab talqin qilmoqda. Afsuski, olim yuqoridagi fikr bilan chegaralanib, jarayonni yuzaga keltiruvchi omillar, bosqichlari masalasiga to'xtalmagan. Yordamchi so'zlar qatori ko'makchilarning aslida mustaqil ma'noli so'z turkumlaridan kelib chiqqan bo'lib, keyingi til taraqqiyotida eng murakkab tushunchalarni ifodalash uchun yordamchi ma'nolarda qo'llana boshlashi va eng oxiri o'zlarining qadimgi leksik ma'nolarini yo'qotishi to'g'risidagi fikrlar H.Berdiyorovning hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida so'ng ko'makchilarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ham uchraydi [5:13].

Rus tili funksional-kommunikativ grammatikasi bo'yicha kuzatishlar olib borgan M.V.Vsevolodov ko'makchi tushunchasiga munosabatini quyidagicha ifodalaydi: "Gap bo'lagi sifatida gap - bu gapda otning yoki uning substansiyasining semantik-sintaktik rolini ifodalash vositasi sifatida va ularni gapga kiritish vositasi sifatida xizmat qiladigan yordamchi leksik birliklar sinfidir. Har bir ko'makchi o'ziga xos leksik ma'noga ega bo'lib, ot yoki uning o'rnini bosuvchi sintaksema ma'nosiga o'z hissasini qo'shadi va uning kelishik shaklini belgilaydi. Ko'makchi so'zning morfologik shaklining bir qismi emas, balki so'zning sintaktik shaklining tarkibiy qismi sifatida sintaksemaga kiradi" [6:23]. Olim o'z fikrlarini davom ettirar ekan, **ko'makchilashish jarayoni** to'g'risida ham to'xtalib o'tgan. Uning ko'makchi deyilganda "funksional-sintaktik birlik tushuniladi, u ham morfologik ko'makchi, ham boshqa so'z turkumlaridan tashkil topgan, lekin shu bilan birga yaxlit xizmat vositasi sifatida faoliyat yurituvchi va ko'makchi bilan bir xil funksiyani bajaradigan birliklar bo'lishi mumkin" [6:21], - degan fikrlari mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlarning ko'makchilashishi bu jarayonni tabiiy deb qarashga undaydi.

Otning ko'makchiga ko'chishini maxsus tadqiq etgan T.I.Antonovaning fikriga ko'ra, ko'makchili birlikning shakllanish jarayoni mohiyati "otning predmetli, grammatik ma'nosini yo'qolishi yoki zaiflashuvidan iborat" [7:37], buning natijasida u xizmat elementi sifatida qabul qilinadi. Shunga yaqin fikrlarni bildirgan M.S.Bunina ham prepozitionalizatsiya muammosiga to'xtalar ekan, ko'makchi-larning shakllanishi predmetlik kategoriyasining bartaraf etilishi natijasida sodir bo'lishini qayd etadi [8:56]. O'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati va unda yuklamalarning o'rnini aniqlashga harakat qilgan Z.Isaqov turkiy tillarda so'z turkumlari va affikslarni tasniflagan M.Zakiyevning morfologik birliklarni nutqni tashkil qilishdagi o'rniga ko'ra uch guruhga ajratganligi haqida ma'lumot beradi: 1) fikrni tashkil qiluvchi muayyan tushunchalarni ifodalovchi birliklar; 2) so'zlovchining borliqqa munosabatini ifodalovchi birliklar; 3) gapni tashkil qiluvchi so'zlar orasidagi munosabatni amalga oshiruvchi birliklar. Birinchi guruhga mustaqil deb ataluvchi so'zlarni kiritadi: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish. Ikkinci guruhga modal so'zlar, undovlar, yuklamalar kiritiladi. Uchinchi guruhga esa ko'makchi, ko'makchilashgan so'zlar, bog'lovchi va bog'lovchilashgan so'zlar mansub bo'ladi [9:12]. Ko'rindiki, olimning so'z turkumlari tasnifi masalasida qarashlari ancha farqli bo'lsa-da, uning ko'makchilashgan so'zlarni alohida turkum sifatida qarashi ahamiyatlidir. "O'zbek tili grammatikasi"da ham shunga yaqin fikrlar mavjud. Unda "Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'makchilarning ikki xili uchraydi. Bular: *bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar singari* mustaqil ma'nosini tamoman yo'qtgan so'zlar va *tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so'ng, tashqari, beri, ko'ra, chog'li, uzra* singari ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi, mustaqil so'zlardan (ot, sifat, ravish va fe'llardan) ko'makchilikka ko'chgan so'zlar" [10:541] deyish bilan ko'makchilashish hodisasi – prepozitsionalizatsiya hodisasi e'tirof etilmoqda. Shuningdek, J.Hamdamovning quyidagi fikrlarida ham ko'makchilashish jarayoniga ishora mavjud: "... ularning ba'zilar qaysi turkumdan ajralib chiqqan bo'lsa, o'sha turkum bilan aloqasini hanuzgacha saqlab kelyapti (*qash, gird, utru ro'para, ich, keyin kabilar*), ba'zilari esa o'zi ajralib chiqqan turkum bilan aloqasini butunlay uzgan, ularning etimologiyasi noaniq (*uchun, kabi, bashqa, ozga, sonra, ayru, beri va boshqalar*). Qayerdan kelib chiqqani noaniq, o'zgarmas shaklga ega bo'lgan ko'makchilarni haqiqiy ko'makchilar deb, *mundyn burunroq, tash aldyig'a, koshk yuzasinde, andyn sonraraq, bizin aramyzda* kabi kelishik, son, egalik va boshqa qo'shimchalar bilan ishlatila oladigan ko'makchilarni ko'makchi otlar deb hisoblash mumkin" [11:82]. Tilshunos H.Ne'matov ravish ko'makchilarning nutqda mustaqil qo'llana olish qobiliyati bilan ot ko'makchilarga yaqin turishi, sof va ot ko'makchilar orasida oraliq o'rinni egallashi haqida fikr yuritar ekan, bunda ravish ko'makchilarda yoki sof ko'makchilarga (ya'ni grammatik ma'nosining leksik ma'nodan batamom uzelishi) yoinki ot ko'makchilarga o'tish (ya'ni egalik va kelishik affikslari bilan birikib kelish) tendensiyasi ko'zga yaqqol tashlanishi, shuning uchun *uze, otru* ravish ko'makchilar o'z xususiyati bilan sof ko'makchilarga yaqinlashsa (mas., anym otru (Q.2562) - "bu tufayli andyn otru o'rnida, senin uze - sende"), boshqa bir necha ko'makchilarda (chunonchi asra, tegre, on, basa va h.k.) ot ko'makchilarga o'tishni ko'rish mumkin"ligini, ya'ni ko'makchilashish hodisasining yuz berishini ta'kidlaydi [12:45]. "Zamonaviy

o‘zbek tili. Morfologiya” kitobida bir soni, *ba’zan* ravishi, *ham* yuklamasi, *bilan* ko‘makchisi bog‘lovchiga; ost, ust, old, orqa, tomon, tag, tepa, ich, ora, qosh, lab, yoqa, og‘iz **oti**, qarab, boshlab, ko‘ra, deya, deb, o‘xshab **ravishdoshi**, boshqa, bo‘lak, o‘zga **sifati**, avval, oldin, ilgari, keyin, so‘ng **ravishi** ko‘makchiga ko‘chishi o‘zbek tilshunosligida allaqachon tegishli adabiyotda qayd etib o‘tilganligi ta’kidlanadi [13:442]. Lekin shuni ham yodda tutish lozimki, “Har qanday yasalma (hosil qilingan - yasalib chiqqan element) dastlabki (“birlamchi”) emas, balki keyingi (“ikkilamchi”) hodisadir, u boshqa bir hodisaga tobe (ma’no va boshqa jihatlardan), uning semantik va struktural xususiyatlari o‘sha dastlabki hodisa orqali aniqlanadi. So‘z yasalishi tahlilida tarixiy, diaxronik faktlar zarur bo‘lib qolgan o‘rinlardagina, qiyos uchun keltiriladi, hisobga olinadi, lekin asosga olinmaydi [10: 21-22]. Nazarimizda tilshunos olim J.Eltazarovning quyidagi fikrlari ushbu masalaning bugungi kundagi holatini ochiq-oydin tavsiflab beradi: “Umuman, tilshunosligimizda hozirgacha so‘z turkumlari aro ko‘chishning juz’iy masalalari qalamga olingan, ko‘chish faqat bir yoki bir necha so‘z turkumi doirasidagina olib tekshirilgan, xolos. So‘z turkumlari aro aloqa va ko‘chishning yirik muammolari, xususan, ko‘chishning tafakkuriy, lisoniy va nutqiy asoslari, mustaqil so‘z turkumlararo ko‘chish, mustaqil so‘zlarning yordamchi so‘z turkumlari bilan aloqasi va o‘zaro ko‘chishi, alohida guruhdagi so‘zlarning mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari bilan aloqasi va o‘zaro ko‘chishi, grammatikalizatsiya hodisalari tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolib kelmoqda” [13:118]. Yordamchi so‘z turkumlari esa ushbu hodisani ifodalashda faol.

O‘zbek tilshunosligining nazariy masalalarini yoritishda grammatick qoidalarga asoslaniladi. Bu jarayonda esa grammatikalizatsiya, transpozitsiya va bu hodisalarning ilmiy asoslangan xulosalaridan foydalanishimiz, ushbu hodisalarning tilda doimiy mavjudligini va bu tilning fonetik, leksik, grammatick sathida o‘zgarishga sabab bo‘lishini anglashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Раевская М.В. Теоретические проблемы изучения предлогов в отечественной лингвистике // Вестн. Южно-Урал. гос. ун-та. Сер. Лингвистика. – Т. 2014. 11, № 2.
2. Элтазаров Ж.Д. Сўз турқуми парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – Б.15.
3. Муталибов С. Морфология ва лексика тарихдан қисқача очерк (XI аср ёзма ёдгорликлари асосида). – Тошкент: ЎзФА нашри, 1959. – Б. 122.
4. Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. Иккинчи қисм. Тарихий морфология. Иккинчи бўлим. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2003. – Б.82.
5. Бердиёров Ҳ. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида сўнгкўмакчилар: Филол.фан. номз. ...дис-я. – Самарқанд, 1949. – Б.24.
6. Всеволодова М.В., Клобуков Е.В., Кукушкина О.В., Поликарпов А.А. К основаниям функционально-коммуникативной грамматики русского предлога // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 9. - 2003. - № 2. - С. 22-23..
7. Антонова Т.И. Переход существительных в предлоги // Учен. зап. Магнитогор. гос. пед. ин-та. - 1961. - Т. 14. - С.37.
8. Антонова Т.И. Переход существительных в предлоги // Учен. зап. Магнитогор. гос. пед. ин-та. - 1961.
9. Исақов З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни. – Тошкент, 2001. – Б.12.
10. Ўзбек тили грамматикаси. Т. I. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.541.
11. Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. Иккинчи қисм. Тарихий морфология. Иккинчи бўлим. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2003. – Б.82.
12. Неъматов Ҳ.Ғ. XI-XII аср ёзма ёдгорликларида кўмакчилар // Ўзбек тили грамматик қурилиши, лексикология ва диалектология масалалари. V чиқиши. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1976. – Б. 45.
13. Элтазаров. Ж. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самарқанд. – Б. 118.

14. Normo'minov, S. T. (2023). Til tizimi va so 'z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari haqida. *2016 no. 6 (100/1), 100(66)*, 5-10.
15. Нормуминов, Ш. Т. (2020). ВЗАИМОСВЯЗИ И РАЗВИТИЕ ПАРАДИГМ ЧАСТЕЙ РЕЧИ. *Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук*, (6), 142-147.
16. Yoqubov, I. (2025). Uzbek Spelling Rules: History, Principles, and Modern Applications. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.
17. Yoqubov, I. (2025). O'zbek va turk tillaridagi gap bo'laklarining qiyosiy tavsifi. *fars international journal of education, social science & humanities.*, 13(2), 9-14.
18. Alikulova, D. O., & Pardayev, S. S. (2024). Increasing students'vocabulary by using didactic games and interactive methods in teaching synonyms. *Journal of Science, Research and Teaching*, 3(12), 15-18.
19. Shokir o'g'li, P.S. (2024). Omonim so 'zlarni o 'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. *Miasto Przyszlosci*, 54, 1744-1746.
20. Erbutayeva, S. U. (2021). About some auxiliary words in Uzbek language. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1294-1300.
21. Utkirovna, E. S., & Pardayev, A. B. About New Assistants in Uzbek Language. *JournalNX*, 333-336.
22. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).